



SIRDARYO VILOYATI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK BOSH BOSHQARMASI **BUYRUG'I**

6 may 2024 yil.

165-ICH-son

Sirdaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, xodimlar orasida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash, Sirdaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, xodimlar orasida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini yanada kuchaytirish, amalga oshirilayotgan ishlar maqsadliligi va samaradorligini yanada oshirish, korruptsiyaga qarshi kurashish va uning har qanday ko'rinishlarini oldini olish maqsadida,

B U Y U R A M A N :

1. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiining 2023-yil 26-may kunidagi 91-son buyrug'i ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

korruptsiyaga qarshi kurashish siyosati 1-ilovaga;

xizmat safarları, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga;

manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Bosh boshqarma bo'lim va shu'ba, tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlari doimiy ravishda tizimda korruptsiyaviy xavf-xatarlar yuzaga kelishini oldini olish, korruption xatarlarni baholash va bartaraf etish maqsadida, barcha turdag'i buyruqlar, shartnomalar hamda shartnomaviy tusdagi boshqa hujjatlar loyihalari majburiy tartibda Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimiga mas'ul xodim bilan kelishilishi ta'minlansin.

4. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.



Bosh boshqarma boshlig'i

Sh.Yakubov